

BUXORO MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KAZAKOVA DILFUZA SADULLAYEVNA

**YANGI ASSORTIMENTDAGI KOSTYUMBOP MATONI ISHLAB
CHIQISH VA SIFAT KO'RSATKICHLARINI TADQIQ ETISH**

05.06.02- «To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish»

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Kazakova Difuza Sadullaevna

Yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqish va sifat
ko'rsatkichlarini tadqiq etish 3

Kazakova Difuza Sadullaevna

Разработка костюмной ткани нового ассортимента и исследование
показателей качества 21

Kazakova Difuza Sadullaevna

Development of a new range of suiting fabrics and research of quality
indicators 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 42

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.10.2021.T.101.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KAZAKOVA DILFUZA SADULLAYEVNA

**YANGI ASSORTIMENTDAGI KOSTYUMBOP MATONI ISHLAB
CHIQISH VA SIFAT KO'RSATKICHLARINI TADQIQ ETISH**

05.06.02- «To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish»

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/T2706 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik - texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.bmti.uz va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamrayeva Sanovar Atoyeвна
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Murodov Rustam Murodovich.
texnika fanlari doktori, professor,
Ismoyilov Furqat Barotovich
texnika fanlari falsafa doktori, PhD

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika unistituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik- texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.10.2021.T.101.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «08» fevral soat 11.³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi 15 uy, Tel.:(+998-65-223-78-84, Faks: +998-65-223-78-84) E-mail: bmti_info@edu.uz, Buxoro muhandislik - texnologiya instituti ma'muriy binosi).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q.Murtazoev ko'chasi 15 uy, Tel.: (+998-65-223-78-84, Faks: +998-65-223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «05» fevral kuni tarqatildi.

(2025 yil «05» fevraldagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

X.Q. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

R.X. Nurboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, texnika fanlar nomzodi, professor

S.S. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlar nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to'qimachilik sanoati oldida turgan asosiy vazifalarga korxonalarni qayta jihozlash, resurstejamkor texnologiyalar asosida sifatli va tannarxi past bo'lgan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish va uning assortimentlarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida hozirgi kunga kelib aholining iste'mol talablarini qondirish uchun to'qimachilik sanoatida yangi assortimentdagi kostyumbop matolarning to'qimachilik sohasidagidagi ulushining 22,5% dan 28,3% gacha ortishi amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan yangi assortimentdagi kostyumbop matolar ishlab chiqish uchun mahalliy xom ashyolardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoda to'qimachilik sanoatining xomashyolardan samarali foydalanish va raqobatbardosh to'qimachilik uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, mahalliy xom ashyolardan yangi assortimentdagi mato olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish hamda energiya va resurslarni tejash, olingan xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda kostyumbop matolar assortimentini kengaytirish, mehnat hamda energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, xom ashyolardan samarali foydalanish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, jumladan, «...to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish va eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish...»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, mahalliy jun tola aralashmali yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqarishda texnik va texnologiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹ gi, 2019 yil 28 maydagi PQ-4341-son "Respublika hududlarida tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"² Farmoni,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentyabrdagi PQ-4453-son qaroriga 1-ILOVA¹

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida Farmoni

hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. To'qimachilik sanoati oldida turgan vazifalardan biri, bu sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan matolarni ishlab chiqarishdir. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati mahsulotlari assortimentlarini ko'paytirish va ularning sifatini yaxshilash borasida respublikamiz olimlaridan U.M.Matmusaev, R.Z.Burnashev, H.A.Alimova, E.SH.Olimbaev, M.M.Muqimov, M.Q.Qulmetov, A.D.Daminov, P.S.Siddiqov, S.S.Raximxodjaev, S.A.Xamrayeva, O.A.Axunbabaev, N.B.Yusupovalarning ilmiy tadqiqot ishlari sohaning rivojlanishiga munosib hissasini qo'shgan.

Turli aralash tola tarkibli matolarning tuzilishini loyihalash va iste'mol xususiyatlarini yaxshilash masalalari bo'yicha xorijiy olimlardan: A.G.Sevostyanov, G.N.Kukin, A.A.Martinova, E.A.Onikov, S.D.Nikolaev, R.I.Sumarokova, M.A.Feliks, A.Funder, G.E. Collins, M.Dianich, E.G. Kushner va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida to'quv ishlab chiqarish sohasida ko'p ilmiy tadqiqot ishlar olib borilgan bo'lsada, ammo yangi assortimentdagi kostyumga mo'ljallangan turli tola tarkibli matolarni loyihalash va ishlab chiqish masalalari yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti ITM-68-21 raqamli shartnoma «To'qimachilik mahsulotlari sifatini oshirish yo'llarini ishlab chiqish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2021-2023)

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xom ashyolar asosida sifat ko'rsatkichlari yaxshilangan yangi assortimentdagi kostyumbop mato ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aralash tola tarkibli kostyumbop matoning muayyan tarkibi tanlangan va texnologik ko'rsatkichlari aniqlangan;

mahalliy xomashyolar asosida yangi assortimentdagi kostyumbop mato ishlab chiqish va fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash;

yangi assortimentdagi aralash tola tarkibli kostyumbop mato tuzilishining parametrlarini va matodagi iplarning egilish to'lqinlarining balandligini aniqlash;

kostyumbop matolarning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash va optimal variantini tanlash;

yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqish uchun texnologik parametrlarni optimallashtirish, tanda hamda arqoq iplari tarangligining muqobil qiymatini tanlash, xossalarini tadqiq etish.

Tadqiqot ob‘ekti sifatida turli tola tarkibli arqoq ipi va 100% paxta tolali tanda iplaridan to‘qilgan kostyumbop mato namunalari, “DONG JIA” rusumli to‘quv dastgohi va mato namunalarining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun TTESI qoshidagi “CentexUz” sinov laboratoriyasidagi zamonaviy asbob-uskunalar olingan.

Tadqiqotning predmeti fizik-mexanik xususiyatlari yaxshilangan kostyumbop matolarni loyihalash uslub va vositalari, dastgoh parametrlari va ko‘rsatkichlari hamda ularning o‘zgarish qonuniyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matolarni tuzilishini loyihalash, matolarni nazariy va amaliy geometrik, matematik statistik hisoblash usullaridan, kompyuter dasturiy ta‘minotidan, tadqiqot natijalarini olish imkonini beruvchi nazariy-eksperimental usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jun, poliefir va paxta tola tarkibli kostyumbop matoning muayyan ulushi tanlangan va fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida matoning arqoq bo‘yicha zichligi, tanda va arqoq iplari tarangligining optimal texnologik qiymatlari aniqlangan;

yangi assortimentdagi aralash tola tarkibli kostyumbop matoni ishlab chiqishni loyihalashda matoning geometrik modeli orqali iplarni o‘zaro bosimi, matodagi iplarning hisobiy diametri, bir rapport o‘rilishdagi geometrik o‘lchamlari, tanda va arqoq iplarining egilish to‘lqin balandliklari, matoni tanda va arqoq bo‘yicha to‘ldirish koeffitsientini, matoda iplarning qisqarishi, matoning hisobiy sirt zichligi aniqlangan.

tarkibi jun, poliefir va paxta tolali bo‘lgan mahalliy xomashyolar asosida tandali sarja o‘rilishli, tanda va arqoq iplarining egilish to‘lqin balandliklari teng tayanch sirtli va ishqalanishga chidamliligi yuqori bo‘lgan yangi assortimentdagi kostyumbop mato ishlab chiqilgan;

ishlab chiqarilgan yangi assortimentdagi kostyumbop matoning tanda va arqoq bo‘yicha uzish kuchi, yuvgandan so‘ng kirishishi, ishqalanishga chidamliligi, havo o‘tkazuvchanligi, tanda va arqoq bo‘yicha g‘ijimlanmasligining o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi regression bog‘lanishlari kichik kvadratlar usulini qo‘llash orqali ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jun+paxta+poliefir tola tarkibli, tuzilishi o‘zgartirilgan yangi assortimentdagi kostyumbop mato yaratilgan, ishlab chiqarishga joriy etilgan.

yangi assortimentdagi kostyumbop matoning fizik-mexanik xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada ilmiy holatlarning shakllanishi, tartibi, xulosalari va tavsiyalari, nazariy va eksperimental tadqiqot natijalari, natijalarni aprobeatsiya va tadbiq etilishi, vaholanki taqqosiy natijalar, ularning baholash mezonini bo‘yicha adekvatliligi tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kostyumbop matolarning sifatini yaxshilash maqsadida mahalliy xomashyolardan foydalanilganligi va kostyumbop matoning yangi assortimenti

ishlab chiqilganligi, tuzilish parametrlarini o'zgartirish orqali matoning sirti yaxshilangan yangi assortimentdagi aralash tola tarkibli kostyumbop mato loyihalanganligi hamda sifatli kostyumbop matolar ishlab chiqarishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yangi assortimentdagi kostyumbop mato ishlab chiqish uchun mahalliy xomashyolardan foydalanish, turli aralash tola tarkibli matoning sifatini yaxshilash, turli tola tarkibli kostyumbop matolarning tuzilishini belgilangan parametrlari bo'yicha loyihalash, ularni joriy etish natijasida yuqori sifatli matolarni ishlab chiqarish va kostyumbop matolar assortimentini kengaytirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Turli tola tarkibli kostyumbop mato uchun mo'ljallangan iste'mol xususiyatlari yaxshilangan yangi assortimentdagi mato ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida;

yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqarish uchun ip olish usuli (№ IAP 07115-2022y.) ixtiroga patent olingan;

yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqish va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tasarrufidagi Buxoro "Ko'zi ojizlar jamiyatiga qarashli Buxoro o'quv ishlab chiqarish" va «Al-Hakim plyus» MCHJ korxonalarida joriy etilgan (O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2023yil 21 avgustdagi №03/25-1834 -sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijalarini joriy etish natijasida, matoning ishqalanishga chidamliligi 31,7% ga oshishi va kompleks baholash ko'rsatkichlari 9-13% ga yaxshilanishiga erishilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 9ta xorijda nashr etilgan, O'zbekiston Respublikasining 1ta ixtiroga patent olingan va 2 ta monografiya chop etib nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalarni belgilaydi, shuningdek tadqiqot ob'ekti va predmetini shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida Respublikamiz va MDHning boshqa mamlakatlaridagi to'qimachilik korxonalarida kostyumbop matolar ishlab chiqarishning holatini tahlili, matolarning sifat ko'rsatkichini baholashda iste'mol xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha bajarilgan ishlar tahlili, matolarning uzish kuchi va uzishdagi uzayishini tadqiq etish bo'yicha ishlar tahlili, matolarning ishqalanishga chidamliligini tadqiq qilish bo'yicha ishlar tahlili, matoning fizikaviy va kimyoviy ta'sirlarga qarshiligi bo'yicha ishlar tahlili, matolarning gigienik xossalarini tadqiq etish bo'yicha bajarilgan ishlar tahlili, kostyumbop matolar ishlab chikarishda o'rnatma parametrlarning sifat ko'rsatkichlarga ta'siri bo'yicha ishlar tahlili bajarilgan. Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqot ob'ektlari va usullari tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental tadqiqot olib borish ob'ekti, turli tarkibli kostyumbop matolarni tadqiq qilish usullari va tavsifi ko'rsatilgan, turli tola tarkibli yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqishning nazariy asosi va turli tarkibli kostyumbop matoning variantlar bo'yicha o'rinish modeli ishlab chiqilgan. Kostyumbop matolarga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, turli arlash tarkibli kostyumbop matoni ishlab chiqish bo'yicha bajarilgan nazariy asoslarning bosqichlarda o'z yechimini topgan.

Yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqish bo'yicha eksperiment o'tkazish uchun o'zgartirilishi zurrur bo'lgan parametrlarni tanlashdan avval matoning iste'mol xususiyatini tanlashni va asoslashni taqozo etdi. Bu uchun malakali mutaxassislar ishtirokida ekspert usulida matoning iste'mol xususiyatlari aniqlandi va ahamiyatligining tsikli diagrammasi tuzildi (1-rasm).




1-rasm. Kostyumbop matoning iste'mol xususiyalarining tsikli diagrammasi.


Ekspertlar tomonidan berilgan baholar bo'yicha kostyumbop matoning iste'mol

xususiyatlari orasida ishqalanishga chidamlilik yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan.

Avvalgi bajarilgan tadqiqotlardan ma‘lumki, sarja 2/1 o‘rilishli mato tanda sirtli hisoblanib, mato sirtiga chiqqan tanda qoplamlari tez yeyilib, matoni xizmat muddatini pasaytiradi. Biz tavsiya etgan yangi assortimentdagi kostyumbop matoning ishqalanishga chidamliligini oshirish uchun matoning tuzilishi nazariy tahlil qilinib, tanda ipi tarangligi 22sNdan 30sNga o‘zgartirish natijasida, tanda ipi tarangligi 30sN, arqoq ipining tarangligi 15sNga o‘rnatilsa 2-rasmga binoan sarja 2/1 o‘rilishli kostyumbop matoda tanda va arqoq iplarining egilish to‘lqin balandliklari quyidagiga teng bo‘ladi:



2-rasm. Sarja 2/1 o‘rilishli teng sirtli kostyumbop matoning arqoq yo‘nalishi bo‘yicha geometrik modeli



3-rasm. Sarja 2/1 o‘rilishli teng sirtli kostyumbop matoning tanda yo‘nalishi bo‘yicha geometrik modeli

$$h_t = \frac{N_t \cdot l'_t}{2 \cdot F_t} = \frac{38,4 \cdot 0,564}{2 \cdot 30} = 0,360 \text{ mm};$$

$$h_a = \frac{N_a \cdot l'_a}{2 \cdot F_a} = \frac{18,9 \cdot 0,564}{2 \cdot 15} = 0,355 \text{ mm}$$

Bunda N_t , N_a - tanda va arqoq iplarining o'zaro bosimi; l'_t , l'_a - matodagi tanda va arqoq iplari orasidagi masofa, mm; F_t , F_a - tanda va arqoq iplarining tarangligi, sN. Matodagi tanda va arqoq iplarining egilish to'liqin balandliklari bir-biriga yaqin natijani berganligi tanda va arqoq iplarining tarangligini o'zgartirish natijasida matoning ishqalanishga chidamliligini oshishiga asos hisoblanadi va dastlabki eksperiment o'tkazish uchun imkon yaratildi. Dastlabki eksperiment tanda ipi 100% paxta, arqoq ipi turli tola tarkibidan iborat 4-variantda kostyumbop mato olindi va natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Matolarning to'liq tarkibi bo'yicha variantlar (V)	Tanda ipi tarangligi, sN	Turli tola tarkibli kostyumbop matoning iste'mol xususiyatlari							
		Havo o'tkazuvchanligi, $\text{dm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{s}$	Uzish kuchi, N		Uzishdagi uzayish, %		Ishqalanishga chidamlilik, tsikl	Kirishishi, %	
			Tan-da	Ar-qoq	Tan-da	Ar-qoq		Tan-da	Ar-qoq
1-v. Tanda va arqoq iplari 100% paxta	22	49,3	351	345	4,7	6,2	15109	-1,5	1,5
	26	54,9	366	360	4,6	6,4	17247	-1,3	1,2
	30	58,3	387	380	4,4	6,60	18125	-1,2	1,0
2-v. Tanda-100% paxta. arqoq-70% paxta, 30% poliester	22	45,1	354	554	5,0	6,0	16178	-1,5	1,8
	26	52,5	367	587	4,5	6,7	17634	-1,3	1,4
	30	55,9	379	606	4,6	6,4	19149	-1,2	1,2
3-v. Tanda-100% paxta; arqoq-30% paxta, 20% jun, 50% Pef	22	40,2	372	590	5,1	6,5	18097	-1,3	1,4
	26	44,7	387	630	5,2	7,8	20943	-1,2	1,2
	30	49,8	425	680	5,0	7,0	24086	-1,0	1,0
4-v. Tanda-100% paxta. arqoq-40% paxta, 20% jun, 40% Pef	22	42,3	370	580	5,0	6,9	17890	-1,4	1,6
	26	46,7	380	618	4,8	7,9	20154	-1,2	1,4
	30	53,6	400	660	4,8	7,6	23065	-1,0	1,3

Dastlabki eksperiment natijalari tahliliga ko'ra, tanda ipining tarangligi 30sN o'rnatilganda 22sN, 26sN qiymatlarga nisbatan 1-varianda to'qilgan kostyumbop matoni tanda bo'yicha uzish kuchi 4,3%dan 10,2%gacha, arqoq bo'yicha 8%dan 11,5% gacha oshdi, ishqalanishga chidamliligi 15%dan 20%gacha oshdi, tanda va arqoq bo'yicha kirishishi bir biriga yaqin natijani berdi.

2-variantdagi matoning tanda bo'yicha uzish kuchi 3,4%dan 7,0%gacha, arqoq

bo'yicha 6%dan 9,4% gacha oshdi, ishqalanishga chidamliligi 9%dan 18,4%gacha oshdi, tanda va arqoq bo'yicha kirishishi bir biriga yaqin natijani berdi.

3-variantda kostyumbop matoning tanda bo'yicha uzish kuchi 6,1%dan 8,9% gacha, arqoq bo'yicha 7%dan 15,2% gacha, ishqalanishga chidamliligi 16%dan 33,2%gacha oshdi, tanda va arqoq bo'yicha kirishishi bir biriga yaqin qiymatni berdi.

4-variantdagi matoning tanda bo'yicha uzish kuchi 3,0%dan 8,1%gacha, arqoq bo'yicha 6,6%dan 13,7% gacha, ishqalanishga chidamliligi 12,6%dan 28,9%gacha oshdi, tanda va arqoq bo'yicha kirishishi bir biriga yaqin qiymatni berdi.

Dissertatsiya ishining **“Eksperimental-tadqiqot o'tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida dastlabki eksperiment natijalariga binoan, tanda ipi- 100% paxta va arqoq ipi-30% paxta, 20% jun, 50% Pef aralash tolali 3-variantdagi kostyumbop matoni ishlab chiqarish optimal tarkibli mato bo'lib hisoblandi va boshqa ulushli hamda tarkibli matolarga nisbatan barcha ko'rsatkichlari yaxshi deb topildi va to'liq omilli eksperiment o'tkazish uchun asos bo'ldi.

To'liq omilli eksperimental tadqiqot o'tkazish 2³ reja asosida ishchi matritsasi tuzildi. To'liq omilli eksperiment o'tkazish uchun kiruvchi omillar sifatida X_1 -tanda va X_2 -arqoq iplarining tarangligi, sN, X_3 -bosh valning aylanishlar soni, ayl/min; chiquvchi omillar sifatida U_1 -matoning tanda bo'yicha uzish kuchi, N; U_2 -matoning arqoq bo'yicha uzish kuchi, N; U_3 - matoning tanda bo'yicha yuvgandan so'ng kirishishi, %; U_4 - matoning arqoq bo'yicha yuvgandan so'ng kirishishi, %; U_5 -matoning ishqalanishga chidamliligi, davr; U_6 -matoning havo o'tkazuvchanligi, $\text{dm}^3/\text{m}^2 \cdot \text{s}$; U_7 -matoning tanda bo'yicha g'ijimlanmasligi, %, U_8 -matoning arqoq bo'yicha g'ijimlanmasligi, % tanlandi.

To'liq faktorli eksperiment “Al-Hakim plyus» korxonasida “DONG JIA” to'quv dastgohida o'tkazildi. To'liq faktorli eksperiment o'tkazish reja matritsasi 2-jadvalda, tadqiqot natijalari 3-jadvalda va 4-8-rasmlarda keltirilgan.


2-jadval

To'liq omilli eksperiment o'tkazishni reja matritsasi


u	Omillarning kodli qiymati			Omillarning natural qiymati		
	x_1	x_2	x_3	$F_{t, H}$	$F_{a, H}$	n, ayl/min
1.	-	-	-	22	12	570
2.	+	-	-	30	12	570
3.	-	+	-	22	18	570
4.	+	+	-	30	18	570
5.	-	-	+	22	12	630
6.	+	-	+	30	12	630
7.	-	+	+	22	18	630
8.	+	+	+	30	18	630

To'liq omilli eksperimental tadqiqot natijalari


t/	Chiqish parametrlarining kodli qiymatlari			Matoning uzish kuchi, N		Matoni yuvgandan so'ng kirishishi, %		Matoning ishqalanishga chidamliligi, davr	Matoning havo o'tkazuvchanligi, $\text{dm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{s}$	Matoni g'ijimlanmasligi, %	
				Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			Tanda	oq
	X ₁	X ₂	X	Y ₁	Y ₂	Y ₃	Y ₄	Y ₅	Y ₆	Y ₇	Y ₈
1.	-	-	-	390	656	-3,0	2,0	21299	50	35	46
2.	+	-	-	389	662	-2,5	3,5	22761	54	34	47
3.	-	+	-	390	666	-1,2	1,0	23859	48	33	43
4.	+	+	-	388	650	-1,5	1,5	22856	52	37	48,5
5.	-	-	+	390	658	-3,0	1,5	21907	50	35	49,5
6.	+	-	+	400	680	-1,0	1,0	24082	60	45	50
7.	-	+	+	392	662	-1,4	1,5	22366	49	39	47
8.	+	+	+	394	646	-2,5	2,5	23596	50	35	40




4-rasm. Kirish parametrlari ta'sirida matoning uzish kuchini o'zgarishi.




5-rasm. Kirish parametrlari ta'sirida matoni yuvgandan so'ng kirishishining o'zgarishi.



6-rasm. Kirish parametrlari ta'sirida matoni ishqalanishga chidamliligining o'zgarishi.





7-rasm. Kirish parametrlari ta'sirida matoni havo o'tkazuvchanligining o'zgarishi.



8-rasm. Kirish parametrlari ta'sirida matoni g'ijimlanmasligining o'zgarishi.

4-8-rasmlardan ma'lumki, 6-tajriba variantda tanda iplarining tarangligi 30sN va arqoq bo'yicha taranglik qiymati 15sN o'rnatilganda boshqa qiymatlarga nisbatan matoning tanda va arqoq bo'yicha uzish kuchi, ishqalanishga chidamliligi, havo o'tkazuvchanligi, g'ijimlanmasligi oshganligi, yuvgandan so'ng kirishish kamayganligi aniqlandi.

6-tajriba variantdagi kostyumbop matoning tuzilishi tahlil qilinganda, uning teng sirtliliigi aniqlanganligi va bu sirtli matoning tuzilishi b-rasmda namoyon etilgan.



9-rasm. Sarja o'rinishli matoning o'rinishi, tanda va arqoq bo'yicha ko'ndalang kesimi: a- arqoq sirtli; b – teng sirtli; c –tanda sirtli.

O'tkazilgan to'liq omilli eksperiment asosida 9-ramdagi holat bo'yicha arqoq sirtli, teng sirtli va tanda sirtli kostyumbop matolarning tuzilishi va xossalarining

o'zgarishi 4-jadvalda keltirilgan.

Tanda va arqoq iplari tarangliklarining ta'sirida tanda ipi 100% paxta va arqoq ipi 20% jun, 30% paxta, 50% poliefir tola, aralashmali kostyumbop matolarning tuzilishi va xossalari o'zgarishi

4-jadval


t/r	Matoning zichligi, ip/10sm		Tayanch sirti, qoplamlarning chiqishi		Matoning ishqalanishga chidamliligi, Davr	Matoning havo o'tkazuvchanligi, dm ³ /sm ² sek	Matoning yuvgandan so'ng kirishishi, %	
	R _t	P _a	T _t	T _a	TS	V	U _t	U _a
Ft=22sH, Fa=18cH, h _a <h _t								
1	250	210	250	94	18132	29,9	-1,3	1,2
Ft=30cH, Fa=15cH, h _a =h _t								
2	250	210	246	209	24297	49,8	-1,2	1,0
Ft=26cH, Fa=21cH, h _a >h _t								
3	250	210	160	208	19773	37,5	-1,0	1,0

Tanda ipi-100% paxta va arqoq ipi-30% paxta, 20% jun, 50% Pef tolali, sarja 2/1 o'rinishli yangi assortimentdagi kostyumbop matolarni ishlab chiqarish natijalarini baholashda matematik statistik qayta ishlash natijasida aniqlik olish uchun keyingi bobda eksperimental tadqiqot natijalari qayta ishlandi va quyidagi natijalar olindi.

“Eksperimental tadqiqot natijalarini qayta ishlash, baholash va sifatini tadqiq etish” deb nomlangan to'rtinchi bobda turli tola aralashmali kostyumbop matoning sifat ko'rsatkichlarini tadqiq etishda to'liq omilli eksperiment natijalarini qayta ishlash va regression modellari tuzildi, tola tarkibi turlicha bo'lgan kostyumbop matolarning sifat ko'rsatkichlarini tadqiq etildi va kompleks baholandi, turli tola tarkibli kostyumbop matoni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish natijasida yillik iqtisodiy samaradorligi aniqlandi.


Regression koeffitsientlarning hisobiy natijalari asosida quyidagi chiqish parametrlari uchun regressiya modellari olindi.

Matoning tanda va arqoq bo'yicha uzish kuchi uchun ko'p omilli regressiya modeli olindi va sirt grafigi qurildi (10-11-rasm).



10-rasm. Matoni tanda bo'yicha uzish kuchining regression modeli asosida qurilgan sirt grafigi


$$Y_2 = 659,75 - 0,25 - 3,7x_2 + 1,25x_3 - 7,75x_1x_2 - 3,2x_2x_3$$



11-rasm. Matoni tanda bo'yicha uzish kuchining regression modeli asosida qurilgan sirt grafigi

Matoni Y_3 -ishqalanishga chidamliligining ko'p omilli regressiya modeli olindi va sirt gafigi qurildi (12-rasm).


$$Y_3 = 22840,75 + 483x_1 + 328,5x_2 + 147x_3 - 426,25x_1x_2 + 368,25x_1x_3 - 335,2x_2x_3 + 190x_1x_2x_3$$



12-rasm. Matoni ishqalanishga chidamliligining regression modeli asosida qurilgan sirt grafigi

Matoni Y_4 - havo o'tkazuvchanligining regressiya modeli olindi (13-rasm).

$$Y_4 = 51,62 + 2,37x_1 - 1,87x_2 + 0,62x_3 + 0,37x_1x_3 - 0,87x_2x_3$$




13-rasm. Matoni havo o'tkazuvchanligining regression modeli asosida qurilgan sirt grafigi

Matoni tanda bo'yicha Y_5 va arqoq bo'yicha Y_6 g'ijimlanmasligining regressiya modeli olindi va sirt grafigi qurildi (14-rasm).

$$Y_5 = 36,63 - 0,631x_2 + 1,88x_3 + 0,38x_1x_3 - 0,875x_2x_3 - 2,37x_1x_2x_3$$


$$Y_6 = 46,37 - 1,63x_2 + 0,25x_3 - 0,3x_1x_2 - 1,63x_1x_3 - 1,37x_2x_3 - 1,5x_1x_2x_3$$



14-rasm. Matoni g'ijimlanmasligining regression modeli asosida qurilgan sirt grafigi


Eksperimental natijalarni tahlil qilish maqsadli yuzalarining ikki yo'nalishli bo'lishi uchun parametrlarni o'zgartirganda optimallashtirish mezonining o'zgarish qonuniyatlarining vizual tasvirini olish imkonini berdi va grafik usuli yordamida kelib chiqadigan ziddiyatli masalalarni yechishni osonlashtirdi. Bunday hollarda, regressiya tenglamalarga barcha omillarning qiymatlar qo'yib taqqoslandi, optimal variant aniqlandi, ya'ni $X_1=1$, $X_2=-1$, $X_3=1$ bo'lganda kostyumbop to'qimaning ko'rsatkichlari eng yaxshi kattaliklarga ega bo'ldi.

Yangi assortimentdagi kostyumbop matoning sifat ko'rsatkichlarini tadqiq etish uchun kompleks baholandi va natijalari 15-16-rasmlarda keltirilgan.



I		II		III	
IV		V		VI	
VII		VIII			

15-rasm. Turli variantdagi kostyumbop matoning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi.



16-rasm. Turli variantlarda olingan kostyumbop matolar sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy gistogrammasi.

Turli variantlarda yangi assortimentdagi kostyumbop matolarning sifat ko'rsatkichlarining tadqiqi bo'yicha kompleks baholash natijalarini tahlil etadigan bo'lsak, yangi assortimentdagi 1-variant kostyumbop matoning yuzasi 5954 mm² ni, 2-variantdagi matoning yuzasi 2295 mm² ni, 3-variantdagi 5121 mm² ni, 4-variantdagi 5038 mm² ni, 5-variantdagi 2908 mm² ni, **6-variantdagi kostyumbop matoning yuzasi 10500 mm² ni**, 7-variantdagi 3991 mm² ni, 8-variantdagi 4836 mm² ni tashkil etdi.

Olib borilgan kompleks baholash natijalaridan ko'rinib turibdiki, 8ta variantda olingan kostyumbop matoning sirt ko'rsatkichi 6-variantda yuqori ekanligi aniqlandi.

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblashda «Al-Hakim plyus» MCHJ korxonalarida joriy etilgan korxonasida «DONG JIA» rusumli to'quv dastgohida turli aralash tarkibli yangi assortimentdagi kostyumbop mato ishlab chiqish va parametrlarni muqobillashni amaliyotga joriy etishning natijalaridan foydalanildi. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

T/r	Nomi	O'lchov birligi	Bazali	Eksperimental	Farqi (+) yoki (-)
1.	To 'quv dastgoh rusumi		“DONG JIA”	“DONG JIA”	
2.	Dastgohlar soni	dona	1	1	
3	Asosiy val aylanishlari soni	min ⁻¹	600	630	
4.	To 'qima eni	sm	165	165	
5.	Dastgoh unumdorligi	m/soat	9,36	11,09	+1,73
6.	Iplarning chiziqli zichligi:tanda bo 'yicha arqoq bo 'yicha	teks teks	50 50	50 50	
7.	Yillik to 'qima ishlab chiqarish hajmi	metr	15 947,767	18 915,104	+2 967,337
8	Bir metr to 'qimaning tannarxi	so 'm	17200	16000	+1200

9.	Foyda	ming so 'm	274301,59	302641,66	+28340,07
----	-------	------------	-----------	-----------	-----------

Turli tarkibli 2/1 sarja o'rilishidagi kostyumbop matoni ishlab chiqarishda tanda va arqoq iplarining uzilishining kamayishi, ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqarishning nazariy asoslanganligi, bosqichlar bo'yicha loyihalaniishi, tanda ipi tarangligini oshirish evaziga matoning tayanch sirti silliqilinishi, barcha iste'mol xususiyatlarini yaxshilanganligi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishini inobatga olgan holda 1 ta to'quv dastgohiga nisbatan kutiladigan yillik iqtisodiy samara 28 340,07 ming so'mni tashkil etdi.

UMUMMIY XULOSALAR

1. Maxsus adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, o'zgartirilgan aralash tolalar yordamida ishlab chiqarilgan matolarning iste'mol xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar cheklangan.

2. Tarkibida jun-paxta-poliefir tolalari bo'lgan kostyumbop matolarining iste'mol xususiyatlarini o'rganish ushbu matolar guruhi bo'yicha ilmiy asoslangan ma'lumotlar bazasidagi mavjud bo'shliqni to'ldirishi va to'qimachilik ishlab chiqarishida ushbu sohani yanada rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

3. Yangi assortimentdagi kostyumbop matoning iste'mol xususiyatlarini tasniflashni tanlash katta ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, iste'mol xususiyatlar natijalarining mohiyatini ushbu xususiyatlar va ko'rsatkichlar tizimi orqali, ierarxik (bir xil xarakterga ega bo'lgan) xususiyatlar tizimini qurish orqali ochib berish ularning sifatini har tomonlama baholashga yondashish imkonini berdi.

4. To'quv dastgohida tanda va arqoq iplari tarangliklarining optimal qiymatlarini aniqlash natijasida kostyumbop matodagi iplarning egilish balandliklari $h_t=0,360$ mm, $h_a=0,355$ mm ga teng bo'lishi nazariy asoslandi.

5. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosladi, 20%gacha mahalliy jun tolasini paxta va poliefirga aralashtirib olingan ipdan yangi assortimentdagi tuzilishi o'zgartirilgan kostyumbop mato ishlab chiqarish matoning iste'mol xususiyatlarini talab darajasida bo'lishi ta'minlandi.

6. Dastlabki eksperiment natijalariga ko'ra, tanda ipi-100% paxta va arqoq ipi-30% paxta, 20% jun, 50% Pef tola tarkibli tarkibli kostyumbop matoni ishlab chiqarish optimal tarkibli mato bo'lib hisoblandi va boshqa ulushli hamda tarkibli matolarga nisbatan barcha ko'rsatkichlar yaxshi deb topildi va haqiqiy eksperiment o'tkazish uchun asos bo'lib hisoblandi.

7. Bazali variantda tanda ipi tarangligi 22sN va arqoq ipi tarangligi 18 sN bo'lgan variantga nisbatan taklif etilgan variantda tanda ipi tarangligi 30sN va arqoq ipining tarangligi 15 sN o'rnatilganda matoning tanda bo'yicha uzish kuchi 23,7%ga, arqoq bo'yicha uzish kuchi 21,4%ga, ishqalanishga chidamliligi 31,7%ga, havo o'tkazuvchanligi 24,8%ga oshdi, yuvgandan so'ng tanda bo'yicha kirishishi 28,8%ga va arqoq bo'yicha kirishishi esa 25%ga kamaydi.

8. Sarja 2/1 o'rilishli kostyumbop matoda tanda va arqoq iplarining egilish

balandligi $h_a = h_t$ tenglashishi boshqa variantlarga ($h_a > h_t$, $h_a < h_t$) nisbatan ishqalanishga chidamliligi yuqori hisoblanib, bunda tanda va arqoq iplari kesishishlari to'g'ri burchakni tashkil etishi, ular orasidagi g'ovakliklardan havoning o'tishi almashishi tanda sirtli va arqoq sirtli matolarga nisbatan yengil kechdi va yuvganda iplarning kirishishuvchanligi hamda g'ijimlanishi kamaydi.

9. Ekspert baholash natijasida mato namunalaridan 3-variantdagi namuna eng yaxshi hisoblanib, matoning havo o'tkazuvchanligi $50 \text{ dm}^3/\text{sm}^2 \text{ sek}$, to'qimaning ishqalanishga chidamliligi 24297 davr, to'qimaning tanda bo'yicha kirishishi 4,0 %, to'qimaning arqoq bo'yicha kirishishi 2,0% ni tashkil etdi.

10. Tanda ipi- 100% paxta va arqoq ipi- 30% paxta, 20% jun, 50% Pef tola aralashmali tuzilishi o'zgartirilgan yangi assortimentdagi matolarning ko'satkichlari bo'yicha regression modellar tuzilgan va regression modellar natijalarini tasvirlash uchun sirt grafigi Matlab dasturi yordamida qurilgan. Barcha kirish parametrlar bo'yicha $F_r < F_t$ bo'lib, bunda gipoteza chiqish parametriga olingan model ahamiyatli, rad etilmaydi.

11. Omilli eksperiment natijalariga binoan X_1 – tanda bo'yicha tarangligi 30sN, X_2 – arqoq ipi bo'yicha taranglik 15 sN, X_3 -bosh valning aylanishlar soni 630 ayl/min bo'lganda ishlab chiqarilgan matoning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha optimal deb topildi.

12. Tahlillar natijasi shuni isbot qildiki, $T_t=50$ teksli va $T_a=50$ teksli iplardan aralash tola tarkibli tuzilishi o'zgartirilgan 2/1 sarja o'rilishli yangi assortimentdagi kostyumbop matoni ishlab chiqarishda tanda va arqoq iplarining uziluvchanligi va mato ishlab chiqarish samaradorligining oshishini inobatga olgan holda 1ta to'quvchilik dastgohiga nisbatan kutiladigan yillik iqtisodiy samaradorlik 28 340,07 ming so'mni tashkil etdi.

**УЧЁНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD. 03/29.10.2021.Т.101.03 ПРИ БУХАРСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

КАЗАКОВА ДИЛФУЗА САДУЛЛАЕВНА

**РАЗРАБОТКА КОСТЮМНОЙ ТКАНИ НОВОГО АССОРТИМЕНТА И
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА**

05.06.02– Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ ПО ТЕХНИЧЕСКИМ
НАУКАМ (Doctor of Philosophy)**

Бухара-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022.1.PhD/T2706

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета (www.bmti.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:

Хамраева Сановар Атоевна
доктор технических наук, профессор
Муродов Рустам Муродович
доктор технических наук, профессор
Исмаилов Фуркат Баратович
доктор философии технических наук,
PhD

Официальные оппоненты:

Ведущая организация:

Джизакский политехнический институт

Защита диссертации состоится «08» февраля 2025 года в 11.³⁰ часов на заседании Ученого совета по присуждению учёных степеней PhD.03/29.10.2021.T.101.03 при Бухарском инженерно-технологическом институте (Адрес: 200117, г.Бухара, ул. Каюма Муртазаева, 15. Тел.: (+998-65-223-78-84, Факс: (+998-65-223-78-84, E-mail: bmti_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрировано за №_____). (Адрес: 200117, г.Бухара, ул. Каюма Муртазаева, 15. Тел.: (+998-65-223-78-84).

Автореферат диссертации разослан «05» февраля 2025 года

(протокол рассылки №_____ от «05» февраля 2025 года.)

Х.К. Рахмонов
Председатель Ученого совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Р.Х. Нурбоев
Ученый секретарь Ученого совета
по присуждению ученых степеней,
кандидат технических наук, профессор

С.С. Мусаев
Председатель Научного семинара при
Ученом совете по присуждению ученых степеней,
кандидат технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Основными задачами, стоящими перед мировой текстильной промышленностью, являются переоборудование предприятий, производство новых видов качественной продукции с низкой себестоимостью на основе ресурсосберегающих технологий, а также расширение её ассортимента. В настоящее время, для удовлетворения потребностей населения, доля костюмных тканей нового ассортимента в текстильной промышленности увеличилась с 22,5% до 28,3%, что требует их внедрения в практику. В этом контексте важное значение имеет эффективное использование местного сырья для производства костюмных тканей нового ассортимента.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических решений эффективного использования сырья, ресурсосберегающих технологий и технических средств для обеспечения конкурентоспособности изделий текстильной промышленности. В связи с этим особое внимание уделяется разработке эффективной технологии получения нового ассортимента тканей из местного сырья, а также энерго- и ресурсосбережению, осуществлению производства готовой продукции из полученного сырья и обоснованию ее технологического процесса, параметров и режимов работы.

В нашей республике в настоящее время реализуются комплексные мероприятия и достигаются определенные результаты по расширению ассортимента костюмных тканей, снижению трудозатрат и энергозатрат, экономии ресурсов, разработке ресурсосберегающих техник и технологий, позволяющих эффективно использовать сырье. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи, среди которых «...модернизация и ускоренное развитие текстильной промышленности, последовательное развитие текстильного производства и значительное увеличение экспортного потенциала...». В реализации этих задач большое значение имеет совершенствование техники и технологий, в том числе при производстве нового ассортимента костюмных тканей с примесью местных шерстяных волокон.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, отмеченных в Указа Президента Республики Узбекистан от 12 февраля 2019 года за № ПП-4186 «О мерах по дальнейшему углублению реформ и расширению экспортного потенциала текстильной и швейно-трикотажной промышленности», целью которого является обеспечение производства конкурентоспособной продукции путем внедрения современных форм организации хлопко-текстильного производства нашей республики, Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года за

№ ПП-60 «О стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы»¹, а также в других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. Большой вклад в развитии отрасли и повышении ассортиментов и качества текстильной продукции внесли научно-исследовательские работы отечественных ученых, как У.М. Матмусаева, Р.З. Бурнашева, Х.А. Алимовой, Э.Ш. Алимбаева, А.Д. Даминова, П.С. Сиддикова, С.С. Рахимходжаева, С.А. Хамраевой, О.А. Ахунбабаева и Н.Б. Юсупова.

Задачи по проектированию структуры тканей с различным составом смешанных волокон и улучшению потребительских свойств исследованы в научных работах зарубежных ученых как А.Г. Севостьянова, Г.Н. Кукина, А.А. Мартыновой, Э.А.Оникова, С.Д. Николаева, Р.И. Сумароковой, М.А. Feliks, A.Funder, G.E. Collins, M. Dianich, E.G. Kushner и др.

Несмотря на тот факт, что проведено большое количество научно-исследовательских работ в области текстильного производства, недостаточно изучены задачи по проектированию и разработки тканей с различным составом волокон для нового ассортимента костюмных тканей.

